



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

## BOLA TARBIYASIDA OILANING O'RNI

**Muqaddasxon Sodiqova***Andijon davlat pedagogika instituti**Milliy g'oya va huquq yonalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq pedagogikasida oiladagi munosabatlar, milliy an'analar xususida ma'lumotlar berilgan. Farzand tarbiyasi, ularning xulqi kabi masalalar haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Bundan tashqari, bolaga mehnat tarbiyasini berishda sog`lom oilaviy muhit, ota-onalarning shaxsiy namunasi, ularning o'rni haqida qayd etilgan

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, tarbiya, oila, ota-ona, qadriyat, mehnat, xulq

Bolani oilada tarbiyalashning imkoniyatlari katta. Lekin biz amalda undan yetarlicha foydalana olmaymiz. O'zbek xalqining milliy an'analar, madaniy qadriyatları, xalq ijodiyotining o'ziga xosligi, tilda o'z aksini topgan xususiyatlari, Xalq pedagogikasining ulkan tajribasi, oiladagi o'zaro munosabatlar tarbiyasida e'tibor berish kerak bo'lgan malakalardir.

Xalq pedagogikasida axloq, nafosat, mehnat tarbiyasi e'zozlanadi. O'tmishda oilada bolaga jamoada o`zini tutishi, atrofdagilarga turli munosabatda bolish o'rgatilgan. Bola tarbiyasida o'zbek xalqiga xos milliy urf-odat, an'analar bilan birga hududi xususiyatlari, bolalarning ruhiyati va qobiliyati xohish, jinsi hisobga olingan. O'tmishda bolalarning hayoti kattalarning, butun jamoa nazorati ostida bo`lgan. O'zbek xalq ertaklari oilada bola tarbiyasida hayot darsligi hisoblangan. Ertak qahramonlari namunasida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat va muhabbat, go`zallikka havas, ezungilik, mardlik kabi go`zal fazilatlar tarbiyalangan. O'zbek xalqi uzoq asrlik mehnat faoliyati jarayonida bilim va malakalar to`plangan. Xalq har bir oilada o'z urug'i namoyondalariga xos xususiyatlarni shakllantirishga o'g'lini otaga, qizini onaga o'xhash bo'lishiga e'tibor bergen. Demak, irsiyat ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan hal qiluvchi omil bolgan. Demak, o'tmishda bolalar oilada ota-onalari, buva va buvilari, qarindoshlari, urug'lari ta'sirida, nazorat shaxs sifatida shakllangan. Bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamenti oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ma'qul. Rasululloh (s.a.v): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim. Oila davlatning asosiy kurtagi, sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi,didiga ta'sir ko'rsatadi.Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi.Oilada kundan kun kamolga yetib borayotgan farzand atalmish ne'mat eng avvalo shu oilaning azaliy qadriyatlariga, urf-odat va an'analariga to'la amal qilmog'i, qolaversa ota-onaning o'zi farzandiga ibrat bo'la olishi lozim. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Estetik, axloqiy va tarbiyaviy sifatlar kundalik hayot ehtiyojiga aylanib,ular oilaviy ijtimoiy tarbiya orqali tarkib toptiriladi va kamol topadi. Oilaviy tarbiyaning mazmunini tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qiladi. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarishda, ijobiy hal etishda ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid targ'ibotlarning roli benihoyadir. Chunki ota-onalar zamonaviy, ruhiy, ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirilmay turib, oilaviy tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Oilaviy-tarbiyaviy targ'ibotda eng yaxshi oilalar namunasida ta'sir ko'rsatish eng maqbul yo'ldir. Maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim.O'z o'quvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga kirta oladi. O'qituvchi ota-onalarni faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi.Bu o'rinda tarbiyachining o'zini-o'zi tarbiyalashi lozimligini ham yoddan chiqarmaslik kerak. O'ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilikni sezish ,tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo'yish uchun ma'naviy huquqga ega bo'ladi. Maktabni oila bilan bog'lovchi vosita bu o'qituvchidir. O'quvchilar bilan ishlash, ularni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faoliyklarini ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofikdir. Bu borada maktab va oila aloqasining

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ta'minlovchi Ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo'lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, "Bolangizni qanday o'qishini bilasizmi?", "Bolangizni odobi haqida suhbatlashaylik.", "Mustaqil hayot bo'sag'asida» kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarni o'z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayg'urishlariga sabab bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan darslar, ularning mazmuni va eng asosiysi, shu ma'lumotni o'quvchiga etkazib beruvchi o'qituvchi xulq-atvori, kiyinishi, hattoki har bir xatti-harakati ham bola dunyoqarashi shakllanishiga ta'sit etuvchi omildir. Bola insoniy xislatlarni, ezgulikni, odamiylikni, yaxshilikni ham yomonlikni ham eng avvalo oiladagi kattalarning, ustozlarining xatti-harakatidan o'rganadi. Ota-onalar bilan bir qatorda tarbiyachi-o'qituvchilar o'z xulq-atvori bilan bolalar hurmatiga sazovor bo'lishlari, ularning hayot yo'lida o'rnak ko'rsatishlari kerak. Shunday muhitda tarbiyalangan bolagina ota-onani, qolaversa o'z ustozlarini hurmat qiladigan, mahalla-kuyda o'zidan kichikni izzatlash, kattalarni hurmatlashni o'z o'rniqa qo'yadigan, xulqparvar bo'lib voyaga etishadi. Har bir tarbiyachi tarbiya san'atkori bo'lmog'i lozim. Bu bolalarni sevish san'atidir. Tarbiyasi og'ir, qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishslash, ularni jamoatchilik kengashlariga olib chiqish, foydali mehnatga jalb qilish, to'garaklarga qatnashtirish, hunarmandchilikka o'rgatishni ta'minlash, har bir tarbiyasi og'ir bolaga jamoatchilik faollarini biriktirish, vaqt-i-vaqt bilan ularni hisobotlarini tinglash lozim.

Vatanga, uning ramzlariga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim rol o'ynaydi. Bunda sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rnbosarlar, maktab direktorlari, bolalar yetakchilari o'z faoliyatini bu yo'nalishga e'tibor bilan qarashlari lozim bo'ladi. Chunki ular maktab mikrorayonida ijtimoiy-pedagogik, tarbiyaviy ishlarni olib borishda o'tkaziladigan tadbirlarning tashkilotchilaridirlar. Ota-onalar bilan hamkorlikda amalgam oshiriladigan ishlarni tahlil qilib, ular bilan bog'liq bo'lgan shakl va usul asosida rejali va izchil ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Ana shunda bog'cha xodimlari, maktab jamoasi a'zolari, ota-onalar va mahalla-kuy hamkorligi ishlarining keng tarqalgan shakli va usullari mavjud. Bular:

1. Ota-onalar, oilalar bilan yakkama-yakka ishslash. Tarbiya jarayonida bu tur katta ahamiyat kasb etib, yaxshi natijani qo'lga kiritish imkonini beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, tarbiyaviy jarayonda inobatga oladi. Buning natijasida tarbiyachi va ota-onsa o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat va do'stlik munosabatlari o'rganiladi.

2. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar, bularga ota-onalarning guruhli va umumiyl majlisi, anjumanlar, tadbirlar kiradi.

3. Tarbiya ishlarida atrof-muhit va mahalla bilan hamkorlikda ish olib borish. Bunda tarbiyalanuvchi bolaga yetti mahalla ota-onsa deganidek, mahallalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar yaxshi samara beradi. Bolalar tarbiyasida jamoaning o'rni ham beqiyosdir. Jamoa haqida gap ketganda biz turli jamoalarni ko'rishimiz mumkin.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Masalan: maktab jamoasi, odamlar jamoasi, mehnat brigadasi jamoasi, Sayohatchilar, tashkilotchilar jamoasidan iborat. Bola bir vaqtning o'zida har bir jamoaning a'zosi bo'lishi mumkin. U jamoalarning har qaysisida muayyan vazifani bajaradi, ulardan o'ziga xos tarbiya oladi, hayot tajribasi boyib boradi. Hozirgi kunda jamiyatimizda maktab jamoasining asosiy vazifasi "ongli va uyushgan ijtimoiy tuyg'ularga, puxta o'yangan dunyoqarashga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan bolalarni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan". Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarbiya masalasi bo'yicha ota-onalar, mahallalar va jamoalarning birgalikdagi hamkorlikdagi harakatlari yaxshi samaraga olib keladi. Oiladagi axloq-odob tarbiyasi o'z-o'zidan amalga oshmaydi albatta, uning uchun o'ziga xos murakkab ijtimoiy – iqtisodiy, psixologik muammolar bor. "Bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson o'z farzandlari baxt-u saodati, fazlu kamolotini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, o'zini ayamaydi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhim, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his qiladi ". I.A.Karimov Biz oila ma'naviyati fikr yuritar ekanmiz, uni ehtiyoj, manfaat va mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liq yana bir jihatini, ya'ni tarbiya jarayonida yoshlar va o'smirlarning ruhiy ehtiyojlarini inobatga olishni ham unutmaslik kerak. Ayni mana shu ehtiyojlarning shakllanishiga mahalla muhiti bevosita ta'sir qilsa,jamoatchilik bu ehtiyojlarni tartibga soladi. Mahalla-kuy, qo'ni-qo'shnilar hamkorligi, hamandardligini ko'rsatuvchi mahallalarimizdagi to'y, katta yig'inlar, a'za marosimlari—xalqimizning jamoatchilik fikri ta'sirida shakllangan qadriyatları namoyon bo'ladi.Aynan shu qadriyatlar ta'sirida yoshlarimiz o'zi yashab turgan mahalladaga insonlarga nisbatan mehr-muhabbatli , oilasiga sadoqatli bo'lib tarbiyalanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida: bu yoshdagi o'smirlarni yildan yilga atrof muhitga, voqealarga qiziqishi ortib boradi.Ular ko'proq o'zlarini qiziqqan ishni kattalardan yashirinchha bajarishga harakat qilishadi.Yolg'on so'zlash, qilgan aybini yashirin va kattalar oldida o'zini aqli raso qilib ko'rsatishga urinishadi. Bu yoshdagi bolalarning barkamollik darajasini oshirib boorish uchun barcha o'qituvchi-murabbiylar, ota-onalar, mahalla-kuy, nazorat inspeksiyasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yib borilmog'i lozim. Chunki bu yoshdagi bolalarning uyda va ko'chadagi bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganligi doimo kattalar nazoratida bo'lmgog'i shart. Bolalarni teatr, muzeylarga olib borish asosan maktabning zimmasida qolgan.Ammo shunga yarasha ota-onalar" Bugun teatrga boribsan, nima ko'rding, nimani tushunding" deb, besh daqiqa vaqt sarflash ota-onalarning vazifasidir. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida:bu ta'lim dargohiga o'qish uchun kelgan talabalar asta-sekin mактабдан, oiladan va ko'cha-kuydan o'rgangan tarbiyasini namoyish eta boshlaydi.Agar o'qituvchi-murabbiylarimiz bu maskanda o'ta kuzatuvchanlik bilan muntazam shug'ullanmasalar, bu yoshdagi o'smirlarning barkamollik darajasini rivojlantirib borish ancha mushkul kechadi.Chunki ta'limning bu bosqichida o'qituvchi-murabbiylar ilmiy savodxonlikni

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kuchaytirish, kasbiy savodxonlikka erishish uchun talabalar bilan tinimsiz muloqot qiladilar. Sergak tarbiyachi o'smirlarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib unga to'g'ri ta'sir eta bilishi lozim. Umuman ta'limning qaysi bosqichida bo'lmasin Tarbiyachi-o'qituvchi yuksak pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarlik darajaga ega bo'lgan holda, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olib ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishlari lozim. Ertangi kun, porloq kelajakka ishontirish, yomon illatlardan holi bo'lishga o'rganib borish barcha jamoa, oila, mahalla ahlining vazifasidir. Tobora rivojlanib borayotgan jamiyatimizga sog'lom fikrlovchi avlodni tarbiyalab berishimiz uchun ota-onalar va o'qituvchilar hamkorligi muhimdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek har qanday ezgu maqsadimizni yoshlar orqali amalga oshiramiz. Ularni yetuk inson bo'lib voyaga etishlarida esa oila, mahalla-kuy, keng jamoatchilik va davlatning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati juda muhimdir.

Bolaga mehnat tarbiyasini berishda sog'lom oilaviy muhit, ota-onalarning shaxsiy namunasi, mehnatga munosabatlari, mehnat ahliga bo'lgan mehr-oqibatlari, tinch-totuv mahalla, mehribon qo'shnilar ham muhimdir. Bolada mehnat faoliyatiga qiziqish va ehtiyoj ancha barvaqt farzandining xarakter-xususiyatini, qiziqishini hisobga olib, yoshligidan mehnat tarbiyasini berib boradi. Bolalarni o'z o'ziga xizmat qilishga odatlantirishda harakatlarni tushuntirish va ko'rsatishdan ko`proq foydalanish kerak. Kichik yoshidanoq har bir bola mehnatda ishtirok etsa, o`z-o`ziga xizmat qilsa, ya`ni kiyinish, ovqatlangandan so`ng yig`ishtirish, chang artish, oyoq kiyimlarni taxlash, gullarga suv quyish va boshqa uncha qiyin bo`lmagan yoki xususiyatiga mos keladigan ishlarni muntazam bajarsa, mehnat bolaga tarbiyaviy ta`sir etadi. Bularning barchasiga oilada asos solingan bo`lsa, mahalla faoliyatida shakllanadi. Maktabgacha ta`lim muassasalarida o`tkaziladigan turli mashg`ulotlar orqali bolalar o`z oldiga maqsad qo'yish, ish jarayonini rejalashtirish, materialdan oqilona foydalanish, ishning maqsadiga muvofiq usullarni qo'llash malakasini o'stradilar.

### REFERENCES:

1. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.
2. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.
3. Kurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS**



4. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.
5. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."
6. H.B.Haydarova, Yosh avlod tarbiyasida oila ma`naviyatining o`rni. <https://buxdu.uz/index.php/ru/90-maqolalar/>
7. <https://moiti.uz/ru/function/activity/>
8. A.Fitratning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» asarida oilaviy hayotning ayrim masalalari xususida. Toshkent, 1996-yil. 88 bet.
9. Davlataliyevna, S. N. (2022). OILADAGI SALBIY MULOQOTNING FARZAND PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 475-478.
10. Raxmatjon qizi , H. (2023). PSIXOLOGIK YETUKLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI. Научный импульс, 1(6), 436-438.
11. Davlataliyevna, S. N. (2022). PSYCHOLOGY AND ITS PRINCIPLES. Scientific Impulse, 1(5), 823-826.

